2015–2025 yillar davomida respublika miqyosida sanoat mahsulotlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM) dagi ulushi hamda Farg'ona viloyatida sanoat mahsulotlarining yalpi hududiy mahsulot (YaHM)dagi ulushi dinamikasi keltirilgan ko'rsatkichlar iqtisodiyot tarkibida sanoat tarmog'ining o'rnini va ahamiyatini baholash imkonini beradi. Mazkur ma'lumotlar sanoatning milliy va hududiy iqtisodiy o'sishdagi roli, tarkibiy o'zgarishlar jarayoni va industrial rivojlanish tendensiyalarini ochib berishga xizmat qiladi. Sanoat ulushining YaIM va YaHM tarkibidagi o'zgarishi mamlakatda amalga oshirilayotgan industriallashtirish siyosati, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish va investitsiya faolligining natijadorligini ifodalaydi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar hududlar iqtisodiyotida sanoat tarmog'ining strategik o'rnini, uning yalpi qiymat yaratishdagi hissasini hamda iqtisodiyot tarkibining diversifikatsiya darajasini aniqlashda muhim tahliliy asos bo'lib xizmat qiladi [11].

2014–2025 yillar oralig'ida respublika bo'yicha sanoatning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi 2014 yilda 13,9 % dan 2021 yilda 20,8 % gacha o'sgan, bu o'zgarish mamlakatda sanoatni modernizatsiya qilish, quvvatlar



va texnologik baza kengayishi natijasi sifatida namoyon bo'ldi. Farg'ona viloyatida sanoatning yalpi hududiy mahsulot (YaHM)dagi hissasi ham 2014 yilda 19,9%dan 2021 yilda 20,6%ga etdi, ya'ni viloyat iqtisodiyotida sanoat tarmog'ining muhim o'rnini saqlanib qoldi. 2022–2023 yillarda mazkur ko'rsatkichlar biroz tekislashgan holda 18,8–19,3% darajada bo'lgan, bu ichki va tashqi iqtisodiy omillar ta'siri bilan izohlanadi.

#### 1-jadval. Yalpi ichki maxsulotda va yalpi hududiy maxsulotda sanoat maxsulotlarining salmog'i [22]

Yillar	Sanoat maxsulotlarini YaIM dagi ulushi	Farg'ona viloyatida sanoat maxsulotlarini YaHM dagi ulushi
2014	13,91	19,9
2015	13,93	18,5
2016	14,81	18,8
2017	15,52	18,8
2018	17,87	19,6
2019	18,99	20,2
2020	20,49	20,3
2021	20,79	20,6
2022	20,29	18,8
2023	20,35	19,3
2024	20,5	20,0
2025	21,0	20,0

Jadval ko'rsatkichlariga ko'ra, respublikada sanoat ulushi YaIM tarkibida 2014–2025 yillarda umumiy o'sish trendi bilan xarakterlanadi. Bu tendensiya uzoq davr mobaynida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, modernizatsiya yo'nalishlarini kengaytirish va eksport salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan siyosat natijasidir. Viloyat darajasida ham, Farg'onada sanoat ulushi umumiy YaHM tarkibida sezilarli darajada saqlanib, 2021 yilda eng yuqori bosqichga — 20,5%ga etgan, Keyingi yillarda ham bu ko'rsatkich 20-20,5 foiz atrofida bo'lib, jahon iqtisodiyotidagi tekislashtirishlar va ichki bozor sharoitlariga moslashuvni aks ettirgan. 2024 va 2025 yillar uchun e'lon qilingan iqtisodiy ko'rsatkichlar sanoat sektorining umumiy o'sish jarayoni uyg'unligini davom ettiradi, respublika miqyosida sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishi saqlanmoqda va Farg'onadagi sanoat faoliyati ham yuqori ulush bilan sohadagi o'zgarishlarini ifoda etmoqda. Shu tariqa, sanoat ulushining oshib borishi va uning iqtisodiyot tarkibidagi ishtiroki viloyatning iqtisodiy muvozanatini saqlab qolish hamda kelgusida rivojlanish uchun asosiy sharoitlar yaratish bilan izohlanadi.

#### 2-jadval. Farg'ona viloyatida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi [22]

Yil	Sanoat mahsuloti hajmi, trln so'm	O'sish sur'ati, %
2015	12,8	106,5
2016	14,1	107,2
2017	15,6	108,422
2018	18,9	112,1
2019	21,3	110,4
2020	22,1	103,7
2021	26,8	109,8
2022	32,4	112,5
2023	38,5	107,8
2024	43,2	106,5
2025	48,7	105,9

Farg'ona viloyatida 2015–2025 yillarda sanoat mahsuloti hajmi va uning o'sish sur'ati viloyatda industrialashtirish jarayonlarining barqaror va samarali kechayotganini ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda 12,8 trln so'mni tashkil etgan sanoat mahsuloti hajmi 2025 yilda 48,7 trln so'mga etgan, ya'ni qariyb 3,8 barobar o'sgan. Yillik o'sish sur'ati asosan 106–112% oralig'ida bo'lib, 2020 yilda 103,7 % ga kamayishi global pandemiya ta'sirini aks ettirsa-da, 2021 yildan boshlab o'sish qayta tiklangan. Mazkur o'sish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator asosiy me'yoriy hujjatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular sanoatni modernizatsiya qilish, investitsiya jozibadorligini oshirish va hududiy rivojlanishni ta'minlashni maqsad qilgan. Xususan, PF–4947son “2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” sanoatni rivojlantirish, kichik sanoat zonalari hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish vazifalarini belgiladi va Farg'onada KSZ soni 6 tadan 38 taga, korxonalar soni 120 tadan 1 200 tagacha o'sishi bilan amaliy ko'rinish topdi. Keyinchalik, PF–60son “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” energiya tejamkor texnologiyalar, innovasion mahsulotlar ulushini oshirish va sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishni nazarda tutdi, bu energiya sarfi va innovasion mahsulotlar ulushining sezilarli yaxshilanishi bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, PF–5572son “Xususiy sektorni va kichik sanoat korxonalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida” qabul etilgan hujjat KSZ va kichik biznesni investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirib, sanoat hajmi va quvvatdan foydalanish darajasining yuqori bo'lishiga xizmat qildi; PQ–3521son “Sanoat tarmoqlarida yuqori qo'shilgan qiymatli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llabquvvatlash choralari” esa to'qimachilik va qurilish materiallari tarmoqlarida quvvatdan yuqori darajada foydalanish hamda eksport hajmining 410 mln dollardan 1,3 mlrd dollargacha o'sishi bilan belgilangan maqsadlarni amalga oshirdi. Shu tarzda, 2015–2025 yillar davomida Farg'ona viloyatida sanoat mahsuloti hajmining qariyb 3,8 barobar o'sishi, energiya sarfi 35 % ga kamayishi, innovasion mahsulotlar ulushining 4,4 barobar o'sishi, kichik sanoat zonalari va quvvatdan foydalanish ko'rsatkichlari viloyatda barqaror, samarali va innovasion industrialashtirish jarayonlari amalga oshirilganini tasdiqlaydi. Bu holat davlat tomonidan belgilangan strategik hujjatlar orqali sanoatni modernizatsiya qilish, hududiy rivojlanishni ta'minlash va yuqori qo'shilgan qiymatli, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish siyosatining uzviy davomiyligini ko'rsatadi.

Farg'ona viloyati sanoati tarkibida yuz bergan strukturaviy siljishlar alohida e'tiborga loyiqdir. To'qimachilik sanoati Farg'ona viloyatining etakchi tarmog'iga aylandi. Xom-ashyo eksport qilishdan voz kechilib, to'liq qiymat zanjirini yaratuvchi klasterlar (ip-kalavadan tayyor kiyim-kechakkacha) tashkil etildi. Bu jarayon nafaqat sanoat ishlab chiqarish hajmiga, balki bandlik va eksport tushumlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Oziq-ovqat sanoati ham sanoatlashtirish jarayonlarida muhim rol o'ynadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan yangi korxonalar tashkil etilishi natijasida viloyatda konservalangan, qadoqlangan va uzoq muddat saqlanadigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi oshdi. Bu esa ichki bozorni barqaror ta'minlash bilan birga, qo'shni davlatlar bozorlariga eksport hajmini kengaytirishga xizmat qildi.

Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi kooperasion aloqalarni mustahkamlab, hududiy iqtisodiy tizimning integratsiyalashuviga zamin yaratdi. Kimyo sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlari ham 2015–2025 yillarda sezilarli rivojlandi. Viloyatda mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish asosida sement, g'isht, keramik mahsulotlar hamda kimyoviy moddalar ishlab chiqarish kengaydi. Ushbu tarmoqlar nafaqat ichki talabni qondirish, balki sanoat va infratuzilma loyihalarini mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlash imkonini berdi. Natijada import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ulushi ortib, tashqi savdo balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatildi.

Sanoatlashtirish jarayonlarining muhim yo'nalishlaridan biri energetika va elektr ta'minoti sohasining rivojlanishi bo'ldi. Ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi energiya resurslariga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Shu bois elektr energiyasi ishlab chiqarish va taqsimlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish sanoat siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Energetika sohasidagi islohotlar sanoat korxonalarining uzluksiz faoliyatini ta'minlashga va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Kimyo sanoati va unga tutash tarmoqlar Farg'ona viloyatida sanoatlashtirish jarayonlarining nisbatan yangi, ammo strategik ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda mavjud xomashyo bazasi va logistika imkoniyatlaridan foydalangan holda mineral o'g'itlar, kimyoviy reagentlar va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish kengaytirildi. Ushbu tarmoqning rivojlanishi sanoatning boshqa yo'nalishlari, xususan qishloq xo'jaligi va qurilish materiallari ishlab chiqarishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, tarmoqlararo sinergetik samarani yuzaga keltirdi.

Mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoati Farg'ona viloyatida hali to'liq shakllanmagan bo'lsada, 2015–2025 yillarda mazkur tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan dastlabki qadamlar qo'yildi. Qishloq xo'jaligi texnikasi ehtiyot qismlari, maishiy texnika va sanoat uskunalarining ayrim turlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ushbu tarmoqning rivojlanishi import o'rnini bosish, texnologik mustaqillikni ta'minlash va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.



## 3-jadval. Farg'ona viloyatining sanoati tarmoqlari tuzilmasi[22]

Sanoat tarmoqlari	Ulushi, %
Neft-kimyo tarmog'i	24,6
To'qimachilik tarmog'i	27,8
Oziq-ovqat tarmog'i	18,4
Qurilish materiallari	15,2
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	9,1
Boshqa tarmoqlar	4,9
Jami	100,0

Farg'ona viloyatida 2015–2025 yillar davomida sanoat tarmoqlari tuzilmasi iqtisodiy rivojlanish va barqaror industrialashtirish jarayonining amaliy natijasini namoyon etadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda 2025 yilga kelib to'qimachilik va engil sanoat tarmog'i ulushi 27,8%ga, neft-kimyo sanoati 24,6%ga, oziq-ovqat sanoati 18,4%ga, qurilish materiallari 15,2%ga va mashinasozlik hamda metallni qayta ishlash tarmog'i 9,1%ga etdi. Ushbu tarmoqlar ulushi sanoatning asosiy drayverlari va yuqori qo'shilgan qiymatli yo'nalishtirishni aniq ko'rsatadi. Tarmoqlar ulushi va ularning rivojlanishi davlat strategiyalari bilan bevosita uyg'un. Xususan, 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan PF–4947-son "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" sanoatni modernizatsiya qilish, kichik sanoat zonalarini tashkil etish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish vazifalarini belgilaydi. Mazkur hujjat asosida to'qimachilik va engil sanoat tarmog'i ulushi va kichik sanoat zonalaridagi korxonalar soni keskin ortib, sanoat rivojlanishi uchun barqaror asos yaratildi. 2022 yildan boshlab, eksport va sanoat mahsulotlari hajmining jadal o'sishi PF–60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" da belgilangan iqtisodiyotni chuqur industrialashtirish, hududlar eksport salohiyatini oshirish va sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish vazifalari bilan uyg'un holda ro'yobga chiqdi. Xususan, innovatsion mahsulotlar ulushi 2015 yilda 4,2%dan 2025 yilda 18,5%ga o'sishi, energiya sarfi va quvvatdan foydalanish samaradorligining sezilarli yaxshilanishi ushbu hujjatda belgilangan maqsadlarning amaliy natijasidir. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlari PQ–3521-son "Sanoat tarmoqlarida yuqori qo'shilgan qiymatli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash choralari" va PF–5572-son "Xususiy sektorni va kichik sanoat korxonalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" hujjatlari bilan ta'minlangan. Ushbu hujjatlar sanoat tarmoqlari ulushini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini yaratdi.

Sanoat ishlab chiqarish hajmining kengayishi, tarmoqlar diversifikatsiyasi va investitsiya faolligining oshishi iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltirib, tabiiy ravishda yangi korxonalarining tashkil etilishi hamda mavjud ishlab chiqarish sub'ektlarining ko'payishiga olib keladi. Sanoat rivojlangan sari ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi, zamonaviy texnologiyalar joriy etiladi, ichki va tashqi bozorlarga mo'ljallangan raqobatbardosh mahsulotlar turi ortib boradi, bu esa yangi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun qulay iqtisodiy muhitni shakllantiradi. Natijada korxonalar sonining o'sishi sanoat siyosati samaradorligini, investitsiyaviy muhit barqarorligini hamda hududning iqtisodiy salohiyati izchil mustahkamlanib borayotganini ifodalovchi muhim ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasm. Farg'ona viloyatida sanoat korxonalarini soni [22]

Farg'ona viloyatida 2015–2025 yillar davomida sanoat korxonalarini soni barqaror va sezilarli oshgan. 2015 yilda 4 320 ta korxonaga faoliyat yuritilgan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkich 8 900 taga etdi, ya'ni qariyb 2,1 barobar ko'paydi. Ushbu o'sish nafaqat sanoat hajmining kengayishini, balki kichik sanoat zonalarini va xususiy sektorning rivojlanishini ham namoyon etadi. Sanoat korxonalarini sonining bu izchil o'sishi viloyatda sanoatni modernizatsiya qilish, innovatsion mahsulot ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va energiya sarfi samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining samarasi hisoblanadi. Shu maqsadda qabul qilingan 2019 yildagi PQ–3521-son "Sanoat tarmoqlarida yuqori qo'shilgan qiymatli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash choralarini", 2018 yildagi PF–5572-son "Xususiy sektorni va kichik sanoat korxonalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlar korxonalar sonining oshishiga sabab bo'lgan. Ushbu hujjatlar sanoat korxonalarini sonining izchil o'sishi va KSZdagi korxonalarining kengayishi orqali viloyatda sanoatni barqaror va samarali rivojlantirishni ta'minladi. Shu tariqa, Farg'ona viloyati sanoat korxonalarini sonining 2015–2025 yillardagi qariyb 2,1 barobar o'sishi davlatning strategik me'yoriy hujjatlari asosida sanoatni uzviy industrialashtirish va xususiy sektorni rag'batlantirish siyosati natijasida amalga oshganligi aniqlandi.



2-rasm. Farg'ona viloyati sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, trln so'm[22]

Farg'ona viloyatida 2015–2025 yillarda investitsiyalar hajmi barqaror va jadal o'sishni namoyon etdi: 2015 yilda 2,1 trln so'm bo'lgan investitsiyalar hajmi 2025 yilda 19,5 trln so'mga etdi, ya'ni qariyb 9,3 barobar ko'paydi. Bu o'ziga xos tendensiya mamlakatda investitsiya siyosatining izchil amalga oshirilayotganini va sanoat korxonalarini soni hamda ishlab chiqarish quvvatlari kengayishi bilan uyg'unligini ko'rsatadi. Ushbu investitsiyalar hajmining oshishi joriy etilgan me'yoriy hujjatlar bilan bevosita bog'liq. Birinchidan, 2019 yil 25 dekabrda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsionnaya faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 598 sonli Qonuni investitsiyalarni muhofaza qilish, qo'llab-quvvatlash va ularni tarmoqlar rivojlanishiga yo'naltirish tizimini yaratdi. Ushbu Qonun doirasida davlat investitsiya faoliyatiga imtiyozlar, preferensiyalar, markazlashtirilgan investitsiyalarni jalb etish, shuningdek soliq va bojxona engilliklari orqali sanoatni modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari belgilanadi, bu esa Farg'onada sanoat tarmoqlarining kengayishiga xizmat qildi. Ikkinchidan, prezidentning investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan 2023 yil 21 iyuldagi 111 sonli "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni investitsiya jozibadorligini oshirish, investorlarga "bir darcha" prinsipi asosida qo'llab-quvvatlash xizmatlarini joriy etish, investitsiya loyihalarini boshidan oxiriga qadar qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilaydi bu xorijiy va mahalliy investitsiyalar uchun sharoitlarni yanada yaxshiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1-avgustdagi PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni respublikada sanoatni rivojlantirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishga qaratilgan tizimni yaratish chora-tadbirlari ham investitsiyalarni jalb qilish va samarali loyihalarni amalga oshirishni tartibga soladi. Ushbu me'yoriy hujjatlar orqali amalga oshirilgan huquqiy va institusional o'zgarishlar natijasida Farg'ona viloyatiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi sohaga yuqori qo'shilgan qiymatli loyihalar, zamonaviy texnologiyalar va eksport potensialiga ega sanoat korxonalarini



hamda kichik sanoat zonalarini rivojlantirishni ta'minladi. Investisiyalar ko'plab ish o'rinlarini yaratish, innovasion mahsulotlar ulushini oshirish va energiya samaradorligini yaxshilashga xizmat qildi.

Farg'ona viloyatida sanoat sohasining jadal rivojlanishi hudud iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalarining ko'payishi, ishlab chiqarish hajmining ortishi va yangi investisiya loyihalarining amalga oshirilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida band aholi sonining o'sishiga va aholi daromadlarining oshishiga xizmat qilmoqda.

4-jadval. Farg'ona viloyati sanoatida band aholi soni[22]

Yil	Band aholi soni, ming kishi
2015	142
2016	148
2017	155
2018	164
2019	171
2020	173
2021	182
2022	194
2023	205
2024	213

Farg'ona viloyatida 2015–2025 yillarda sanoat tarmoqlari va band aholi soni o'rtasida ijobiy uyg'unlik kuzatildi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, sanoat korxonalarini soni 4 320 tadan 8 900 taga, ya'ni qariyb 2,1 barobar o'sishi band aholi sonining 142 ming kishidan 220 ming kishiga ko'payishi bilan uyg'unlashdi. Bu ko'rsatkichlar sanoat sektorida ish o'rinlari yaratish va mahalliy aholi bandligini ta'minlashda sezilarli samara berganini ko'rsatadi. Farg'ona viloyatida sanoat tarmoqlarining kengayishi band aholi sonini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon viloyatda sanoatning barqaror rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Sanoat ishlab chiqarish hajmining izchil o'sishi mahsulotlar turini kengaytirish, sifatini oshirish hamda ularni tashqi bozorlarga yo'naltirish imkoniyatlarini yaratmoqda. So'nggi yillarda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va investisiyalarni jalb qilish natijasida viloyatning eksport salohiyati sezilarli darajada oshdi. Tayyor sanoat mahsulotlarining xorijiy davlatlarga etkazib berilishi nafaqat valyuta tushumini ko'paytirishga, balki hududning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi mavqeini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Farg'ona viloyatining sanoat mahsulotlari eksporti hajmi, tarkibi va geografiyasini tahlil qilish hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish tendensiyalarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.



3-rasm. Farg'ona viloyatining sanoat mahsulotlari eksporti hajmi, mln AQSh dollari[22]

Farg'ona viloyatida 2015–2025 yillar davomida eksport hajmining barqaror va jadal o'sishi mamlakatda amalga oshirilgan industriallashtirish siyosatining amaliy natijasini ifodalaydi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda 410 mln AQSh dollarini tashkil etgan eksport hajmi 2019 yilga kelib 705 mln dollarga etgan bo'lib, ushbu davrda eksport qariyb 1,7 barobar oshgan. Mazkur o'sish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-son farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilangan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish vazifalari ijrosi bilan bevosita bog'liq. 2020 yilda eksport hajmining 705 mln dollardan 680 mln dollarga kamayishi global pandemiya bilan bog'liq tashqi iqtisodiy omillar ta'siri natijasida yuzaga kelgan bo'lsada, ushbu pasayish vaqtinchalik xarakterga ega bo'ldi. Davlat tomonidan ko'rilgan qo'llab-quvvatlash choralari natijasida 2021 yilda eksport hajmi 760 mln dollargacha oshgan, ya'ni bir yil ichida 80 mln dollarlik o'sish ta'minlangan. 2022 yildan boshlab eksport hajmining jadal o'sishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”da belgilangan iqtisodiyotni chuqur industriallashtirish, hududlar eksport salohiyatini oshirish va sanoat mahsulotlari eksportini kengaytirish ustuvor yo'nalishlarining amaliy natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2022–2025 yillar oralig'ida eksport hajmi 890 mln dollardan 1 300 mln dollargacha o'sib, 410 mln dollarlik qo'shimcha eksport salohiyati yaratilgan. 2015–2025 yillar davomida Farg'ona viloyati eksport hajmining 410 mln AQSh dollaridan 1,3 mlrd AQSh dollarigacha, ya'ni qariyb 3,2 barobar o'sishi mamlakatda 2017 yildan boshlab izchil amalga oshirilayotgan industriallashtirish siyosatining uzviy davomiyligi va samaradorligini to'liq tasdiqlaydi.

#### 5-jadval. Farg'ona viloyatida kichik sanoat zonalari rivoji[22]

Yil	Kichik sanoat zonalari soni	Joylashgan korxonalar
2015	6	120
2017	11	260
2019	18	410
2021	26	690
2023	33	940
2025	38	1 200

Farg'ona viloyatida kichik sanoat zonalari (KSZ) soni va ularda joylashgan korxonalar dinamikasi viloyatda industrial infratuzilmaning izchil rivojlanib borganini ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda viloyatda 6 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritgan bo'lib, ularda 120 ta korxonalar joylashgan. 2019 yilga kelib KSZ soni 18 taga, korxonalar soni esa 410 taga etgan. Bu 2015–2019 yillar davomida kichik sanoat zonalari soni 3 barobar, ulardagi korxonalar soni esa qariyb 3,4 barobar oshganini anglatadi. Mazkur o'sish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” hamda ushbu strategiya doirasida qabul qilingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qarorlar ijrosi bilan bog'liq. Ayniqsa, hududlarda ishlab chiqarish infratuzilmasini tayyor holda taqdim etish orqali yangi sanoat korxonalarini joylashtirish amaliyoti KSZlar rivojini jadallashtirgan. 2021 yilga kelib kichik sanoat zonalari soni 26 taga, ularda joylashgan korxonalar soni esa 690 taga etgan bo'lib, bu pandemiya sharoitiga qaramasdan industrial siyosatning davom etganini ko'rsatadi. 2023 va 2025 yillarda mazkur ko'rsatkichlarning yanada o'sishi, ya'ni KSZ sonining 33 tadan 38 taga, korxonalar sonining esa 940 tadan 1 200 tagacha oshishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”da belgilangan hududlarni sanoat asosida rivojlantirish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash vazifalarining amaliy natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. 2015–2025 yillar davomida Farg'ona viloyatida kichik sanoat zonalari sonining 6 tadan 38 tagacha, ularda joylashgan korxonalar sonining esa 120 tadan 1 200 tagacha oshishi viloyatda sanoat infratuzilmasi mustahkamlanib, kichik biznes va sanoat kooperatsiyasi asosida industriallashtirish jarayonlari chuqurlashganini tasdiqlaydi.

Global iqtisodiyotda resurslar tanqisligi va energiya sarfining ortib borishi sharoitida sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Energiya resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu jihatdan, sanoatda energiya samaradorligi dinamikasini o'rganish iqtisodiy tahlilning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Farg'ona viloyati mamlakatimizning yirik sanoat markazlaridan biri sifatida neft-kimyo, kimyo,



elektrotexnika, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega. Ushbu tarmoqlarda energiya resurslaridan foydalanish darajasi, texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish, energiya tejankor uskunalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamining kengayishi energiya samaradorligi ko'rsatkichlarining dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, innovasion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish jarayonlari sanoat korxonalarida energiya sig'imini qisqartirishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

#### 8-jadval. Farg'ona viloyati sanoatida energiya samaradorligi dinamikasi[22]

Yil	1 mlrd so'm mahsulotga to'g'ri keladigan energiya sarfi (shartli birlik)
2015	1,00
2017	0,92
2019	0,85
2021	0,78
2023	0,71
2025	0,65

Farg'ona viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda energiya sarfining izchil kamayib borishi viloyatda industriallashtirish jarayonlari energiya samaradorligi asosida amalga oshayotganini ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda 1 mlrd so'm mahsulot ishlab chiqarish uchun shartli ravishda 1,00 birlik energiya sarflangan bo'lsa, 2019 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 0,85 birlikkacha kamaygan. Bu 2015–2019 yillar davomida energiya sarfi 15 foizga qisqarganini anglatadi. Mazkur tendensiya 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida belgilangan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish vazifalari bilan izohlanadi. 2021 yilda energiya sarfi 0,78 birlikni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2015 yilga nisbatan 22 foizga kamaygan. Shu davrda eksport hajmining 760 mln AQSh dollariga etgani va kichik sanoat zonalarida joylashgan korxonalar sonining 690 tagacha oshgani energiya samaradorligi oshishi sanoat hajmining o'sishi bilan bir vaqtda ta'minlanganini ko'rsatadi. 2022 yildan keyin energiya sarfining yanada kamayishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi"da belgilangan "yashil iqtisodiyot", energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish va sanoatni ekologik barqaror rivojlantirish ustuvor yo'nalishlarining amaliy natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2023 yilda energiya sarfi 0,71 birlikni, 2025 yilda esa 0,65 birlikni tashkil etib, 2021–2025 yillar oralig'ida yana 0,13 birlikka yoki 16,7 foizga qisqargan. 2015–2025 yillar davomida Farg'ona viloyatida 1 mlrd so'm mahsulotga to'g'ri keladigan energiya sarfining 1,00 birlikdan 0,65 birlikkacha, ya'ni 35 foizga kamayishi sanoat tarmoqlarida innovasion texnologiyalar joriy etilayotganini, quvvatlardan samarali foydalanilayotganini hamda industriallashtirish jarayonlari iqtisodiy o'sish bilan birga resurs tejankorlik asosida amalga oshayotganini tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Farg'ona viloyatining 2015–2025 yillardagi industrial rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

1. Sanoat hajmining jadal o'sishi: viloyatda industriallashtirish siyosati natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2015 yildagi 12,8 trln so'mdan 2025 yilga kelib 48,7 trln so'mga etdi, ya'ni ishlab chiqarish quvvatlari qariyb 3,8 barobarga kengaydi. Bu ko'rsatkich hudud iqtisodiyotida sanoat tarmog'ining drayverlik rolini mustahkamladi.

2. Infratuzilmaviy transformatsiya: kichik sanoat zonalarining (KSZ) tizimli tashkil etilishi natijasida ularning soni 6 tadan 38 taga, ulardagi korxonalar soni esa 120 tadan 1 200 taga etdi. Bu hududiy iqtisodiyotda kichik va o'rta sanoat sub'ektlarining ulushini oshirishga xizmat qildi.

3. Investitsiyaviy faollik va eksport salohiyati: sohaga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 9,3 barobar (2,1 trln so'mdan 19,5 trln so'mgacha) ortishi natijasida tayyor mahsulotlar eksporti 3,2 barobar ko'payib, 1,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi.

4. Sifat va resurs tejankorligi: industrial rivojlanish nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, innovasion mahsulotlar ulushi 18,5 foizga etgan bo'lsa, energiya samaradorligini oshirish hisobiga mahsulot tannarxidagi energiya sarfi 35 foizga qisqardi.

5. Ijtimoiy samaradorlik: sanoat korxonalarini sonining 2,1 barobar ortishi band aholi sonini 142 ming kishidan 220 ming kishigacha ko'paytirish imkonini berdi, bu esa hududdagi ijtimoiy barqarorlikning muhim omili bo'ldi.

Tahlillar asosida viloyat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Texnologik modernizatsiya: mashinasozlik tarmog'ida quvvatdan foydalanish darajasi eng past (69%) ekanligini inobatga olib, ushbu tarmoqqa xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va ishlab chiqarish bazasini to'liq yangilash lozim.

2. Zaxiralardan samarali foydalanish: oziq-ovqat sanoatida mavjud 28 foizlik ishlatilmagan quvvatlarni ishga solish uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va saqlashning zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. "Yashil" texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash: energiya sarfini yanada kamaytirish maqsadida sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish tizimini kengaytirish zarur.

4. Innovasion zanjirni mustahkamlash: sanoatda innovasion mahsulotlar ulushini yanada oshirish uchun oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasidagi ilmiy-amaliy kooperatsiyani yangi bosqichga olib chiqish talab etiladi

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Investitsiyalar va investisiya faoliyati to'g'risida". – 2019 yil 25 dekabr, №598.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" (PF-4947). – 2017 yil 7 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasida investisiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" (PF-5495). – 2018 yil 1 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Xususiy sektorni va kichik sanoat korxonalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (PF-5572). – 2018 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida" (PF-60). – 2022 yil 28 yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" (PF-111). – 2023 yil 21 iyul.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Sanoat tarmoqlarida yuqori qo'shilgan qiymatli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida" (PQ-3521). – 2019 yil.
8. Andreev A. Osnovi regionalnoy ekonomiki. – M.: KnoRus, 2012. – 312 b.
9. Vetrova Ye. N., Lapochkina L. V. Transformatsiya promishlennogo razvitiya // Economy. – 2016. – №4. – S. 45–58.
10. Deveryo M. P. Pryamie inostrannie investitsii i ekonomicheskoe razvitie // Journal of Development Economics. – 2002. – T. 67. – S. 1–20.
11. Davlyatova G.M. O nekotoryx napravleniyax razvitiya promishlennosti Uzbekistana na perespektivu //Ekonomika i biznes: teoriya i praktika.-2021.-№10-1.-S.101-105
12. Qurbonov J. Q. Sanoatni modernizatsiyalash // Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar. – 2017. – №2. – S. 34–46.
13. Maxmudov N. M. va boshqalar. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirish: monografiya. – T.: TDIU, 2020. – 276 b.
14. Nureev R. M. Kurs mikroekonomiki. – M.: NORMA, 2005. – 576 b.
15. Nureev R. M. Osnovi ekonomicheskoy teorii. – M.: INFRA-M, 2001. – 384 b.
16. Narzikulov M. P. (tahriri ostida). Milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirish. – T., 2012.- **256 b.**
17. Ortikov A. Sanoat iqtisodi. Darslik. – T.: TDIU, 2009-320 b.
18. Porter M. Ye. Konkurentnoe preimushestvo: sozdanie i podderjanie visokogo urovnya effektivnosti. – Nyu-York: Fri Press, 1985. – 557 b.
19. Porter M. Ye. Konkurentnoe preimushestvo nasiy. – Nyu-York: Fri Press, 1990. – 855 b.
20. Polojenseva Yu. S., Klevsova M. G. Transformatsiya promishlennogo kompleksa // Vestnik GUU. 2021.-45-52 s
21. Roberts B. X., Stimson R. J., Stou R. R. Regionalnoe ekonomicheskoe razvitie: analiz i strategiya planirovaniya. – Berlin: Shpringer, 2006. – 452 s
22. O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti: <https://stat.uz>.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)